

BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR TOPISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR. BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR TOPISH FAOLIYATI YO‘NALISHLARI.

Yo‘ldasheva Muhayyo Saparbayevna

*UrDU huzuridagi Urganch tumani ko‘p tarmoqli texnikumida O‘quv-tarbiyaviy
ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

Annotatsiya: *Ushbu maqoladi byudjetdan tashqari mablag‘lar topish bo‘yicha xorijiy tajribalar va mablag‘ topish faoliyati yo‘nalishlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: pedagog, bitiruvchi, qonunlar, qarorlar, byudjetdan tashqari mablag‘lar, xorijiy tajribalar, realizatsiya, kreditorlik, moddiy-texnika bazasi, Yosh onalar maktabi, maxalla.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlar o‘tkazish davrida ta’lim tizimini moliyaviy sog‘lomlashtirishning strategik yo‘nalishi, byudjetdan tashqari mablag‘, ya’ni tadbirkorlik faoliyatidan mablag‘larni jalg etish hisobiga moliyalashtirishning yangi manbaidan foydalanish hisoblanadi. Bu chora ta’limni jahon miqyosida rivojlantirishning ob‘yekti qonuniyatidir.

Shunday ekan, O‘zbekistonda ta’lim tizimining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish orqali malakali kadrlar tayyorlashning yangicha boshqaruv tuzilmalarini tashkil etish va boshqaruvning zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish dolzarb muammolardan biri deb aytish mumkin.

Buning uchun, avvalo, ta’lim tizimini davlat tomondan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, mavjud mablag‘lardan samarali foydalanish hamda ta’lim muassasalariga byudjetdan tashqari mablag‘larni jalg etishni takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Negaki, ta’lim muassasalarini yetarlicha mablag‘ bilan ta’milamay turib, sifatli ta’lim tizimini talab etish oxir-oqibatda ushbu soha samaradorligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Byudjetdan tashqari mablag‘larni jalg qilish yo‘nalishlari va usullarini qo‘llashda ta’lim sohasi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimini o‘rganish va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqqan holda, o‘zimizga moslashtirib, xorij tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Ta’lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan bizga ma’lumki, AQSH va Yevropa mamlakatlarida aksariyat ta’lim muassasalarini xususiy tarzda ochilgan yoki bo‘lmasa mamlakatdagi birorta yirik korporatsiyalari vasiyligida ochilgan. Bu esa ta’lim muassasalarini bir nechta manbalar hisobiga moliyalashtirilishiga olib keladi. Qolaversa, turli xil grantlar, turli xil ta’lim va konsalting xizmatlari hamda homiylik asosida qo‘srimcha mablag‘larni jalg qilish lozim. Bu jarayonlarga bevosita ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini va ishchi-xodimlarini ham jalg qilish mumkin.

Hozir ko‘plab davlatlarda natijaga qarab moliyalashtirish tartibi ta’lim tizimiga keng joriy etilmoqda. Bunda byudjet mablag‘larini ajratish ma’lum bir maqsadga erishishga qaratiladi. Odatda, byudjet mablag‘lari bitiruvchilar sonidan kelib chiqqan

holda ajratiladi. Daniya, Finlyandiya, Isroil, Gollandiya kabi bir qator davlatlarda shunday moliyalashtirish tartibi joriy qilingan.

Mamlakatimizdagi ta’lim muassasalariga mablag‘larning eng katta qismi to‘lov shartnomasi asosida o‘qishga kirgan talabalarning shartnomasi asosida o‘tkazgan mablag‘lari hisoblanadi. Bu esa ta’lim muassasalarining ushbu mablag‘larga qisman qaram bo‘lib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Barchamizga ma’lumki, 2010 yillardan boshlab mamlakatimizda asosiy e’tibor xorijiy tillar va texnika-texnologiyalarni mukammal biladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Buning natijasida chet tillar va texnika yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlovchi ta’lim muassasalariga qabul kvotalari soni ko‘paytirildi. Bu esa ushbu ta’lim muassasalariga talabalarning to‘lov shartnomasi asosida tushadigan mablag‘lari miqdorini oshishiga olib keldi. Aksincha, iqtisodchi mutaxassis kadrlarni tarbiyalovchi ta’lim muassasalarida esa qabul kvotalari kamayishi natijasida mazkur manba hisobidan oliv ta’lim muassasasiga kelib tushadigan mablag‘lar kamaydi. Bu esa birinchidan, mazkur ta’lim muassasalarida ishlayotgan professor-o‘qituvchilarning sonini qisqarishiga olib kelsa, ikkinchidan turli xil bayramlarda ishchi-xodimlar va professor-xodimlarning rag‘batlantirilishining kamayib ketishiga olib keladi. Bu esa o‘qituvchi va xodimlarning ishsiz qolishiga, ayrimlarining stavkalari kamayishiga, oxir-oqibatda ularning qo‘sishimcha ish qidirishiga yoki bo‘lmasa o‘z lavozimidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab foydalanishiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish uchun, ta’lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida ta’lim muassasalariga kirish oson sanalib, talabalar ta’lim muassasasini bitkazishlari uchun aniq talab qo‘yilgan, ya’ni talabalarni baholash va imtihonlar topshirish aniq belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi. Guruhdagि boshqa talabalarga nisbatan nisbiy baholash amalga oshirilmaydi. Shu boisdan ham ushbu ta’lim muassasalariga kirgan talabalarning deyarli 20-30 foizi ta’lim muassasasini 1-2 yil kechikib bitkazishadi. Bu esa ta’lim muassasasiga bitta talabandan tushadigan mablag‘ning ko‘proq to‘lanishiga olib keladi.

Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning fanni o‘z vaqtida o‘zlashtira olmagan talabalarning qayta topshirishlari uchun ular bilan qo‘sishimcha shug‘ullanishiga qo‘sishimcha mablag‘ ajratilmaydi. Bu esa talabalarning o‘qituvchilar tomonidan nisbiy baholanishiga, buning natijasida talabalar fan bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lmasligi mumkin.

Aksariyat ta’lim tizimi rivojlangan Yevropa mamlakatlari tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, u yerda talaba o‘z vaqtida o‘zlashtirilmagan har bir fandan qo‘sishimcha imtihon topshirishi uchun ta’lim muassasasi hisob raqamiga belgilangan mablag‘ni o‘tkazgandan so‘ngina ruxsat beriladi. Ushbu mablag‘ning asosiy qismi professor-o‘qituvchilarni qo‘sishimcha rag‘batlantirishga ajratiladi. Qolgan qismi esa muassasaning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga hamda turli xil boshqa loyihalarni amalga oshirishga sarflanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga ham mazkur tizim joriy qilinsa, ta’lim muassasalariga qo‘sishmcha mablag‘larni kelib tushishiga hamda ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi degan fikrdaman.

Byudjet tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan byudjetdan tashqari mablag‘lar byudjet mablag‘lari bo‘yicha tejab qolningan mablag‘lar, faoliyat turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar, balansida bo‘lgan davlat mulkini ijaraga berishdan qonun hujjatlariga muvofiq olingan mablag‘larning bir qismi, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan homiylik yordami (beg‘araz yordam) hisobidan shakllantirilishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu qarorning 5 bandida byudjet tashkilotlariga Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish huquqi berilgan va jamg‘arma:

faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;

belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;

homiylididan olingan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi deb belgilab qo‘yilgan.

Bu yerda byudjet tashkilotlari tomonidan xodimlarning mehnat intizomini buzganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 181-moddasining birinchi qismi 2-bandiga muvofiq qo‘llanilgan jarimalar byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish manbai bo‘lib hisoblanmaydi hamda jarimalar summasi tegishli byudjet daromadiga o‘tkaziladi. Bu ish haqi xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan byudjetdan mablag‘ oluvchilarga ham tatbiq etilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu qarorning 6 bandida esa byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining qanday tartibda sarflanishi ham belgilab qo‘yilgan, ular:

1. Avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to‘lashga;

2. Byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

3. ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga.

2025- 2026 yillarda Urganch tumani ko‘p tarmoql texnkumda rejalashtirilgan byudjetdan tashqari faoliyat turlari:

1. Mahalliy aholiga xizmat qiladigan, tarkibida fitobar bo‘lgan dorixona tashkil etish.

2. “Oilada bиринчи тиббиёй йордам ко‘рсатиш ва беморларни уйда парвариш qilish” о‘quv kurslarini tashkil qilish.

3. MFY lar bilan hamkorlikda sayyor “Yosh onalar maktabi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

4. “Oilalarda тиббиёй маданият ва sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ” targ‘ibot guruhlarini tashkil etish.

5. Ta'lim muassasada mavjud trenajyorlardan foydalanib fitnes-klub faoliyatini yo'lga qo'yish.
6. Tashqi sport maydonlarini sun'iy qoplamlar bilan qayta jihozlab sport to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T. "O'zbekiston" 2016y.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T. "O'zbekiston" 2016 y.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T - 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 yevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi to'g'risidagi nizom tasdiqlash haqida"gi 391-sonli qarori.